

# **Aviatsiya musobaqalari doirasidagi “Drone racing” musobaqasini o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM**

## **UMUMIY QOIDALAR:**

**Qatnashuvchilar yoshi:** 16-30 yosh;

**Jamoa tarkibi** - 1 nafargacha a‘zo.

Musobaqa “Dron-racing” maydonidan belgilangan marshrut bo‘ylab harakatlanish, marshrut davomida to‘siqlardan o‘tish va marraga yetib borishga qaratilgan.

Amaliy musobaqada korxona va tashkilotlar, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, harbiy qism va muassasalar qatnashishi mumkin.

## **MAQSADLARI:**

1.1 Dron operatorlari mutaxassislik yo‘nalishidagi bilimlari va ko‘nikmalarini oshirish.

1.2 UUA texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotga ishlatishni o‘rganish.

1.3 Yangi ixtirolar va innovatsiyalarni ko‘rsatish.

1.4 UUA texnologiyalarini rivojlanishi va innovatsiyalarni oshirilishi.

1.5 Musobaqa davomida “Eng ilg‘or dron operatori” mutaxassisini aniqlash.

## **MUSOBAQANI O‘TISH TARTIBI:**

2.1 Musobaqa 3 bosqichda o‘tkaziladi: tayyorgarlik, tanlov va yakuniy.

2.2 tayyorgarlik bosqichida har bir qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha vaqtni inobatga olmagan holda parvozlarni amalga oshiradi. Parvoz davomida dronni texnik imkoniyatlari va uchish barqarorligini aniqlanadi.

2.3 Tanlov bosqichida har bir qatnashuvchi 3 marta parvozni amalga oshiradi. Parvoz davomida olingan eng yuqori natijasi hisobga olinadi. Ushbu bosqichda musobaqa qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha belgilangan talablarni buzmasdan qisqa vaqt ichida parvozni amalga oshirishi talab etiladi.

2.4 Yo‘nalish bo‘yicha to‘siqlardan belgilangan tartibda o‘tgan, dronlarga shikast yetkazmasdan va eng kam vaqt ichida parvozni amalga oshirgan ishtirokchi yuqori natijaga ega bo‘ladi hamda keying bosqichga o‘tkaziladi.

2.5 Tanlov bosqichi natijalari bo‘yicha eng yuqori natijani ko‘rsatgan 5 ishtirokchi yakuniy bosqichga yo‘llanma oladi.

2.6 Yakuniy bosqichda har bir qatnashuvchi 3 marta parvozni amalga oshiradi. Parvoz davomida olingan eng yuqori natijasi hisobga olinadi. Ushbu bosqichda musobaqa qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha belgilangan talablarni buzmasdan qisqa vaqt ichida parvozni amalga oshirishi talab etiladi.

2.7 Yo'nalish bo'yicha to'siqlardan belgilangan tartibda o'tgan, dronlarga shikast yetkazmasdan va eng kam vaqt ichida parvozni amalga oshirgan ishtirokchilar musobaqaning 1, 2 va 3 sovrinli o'rinlarini egallaydi.

## **DRONGA QO'YILADIGAN TEXNIK TALABLAR**

3.1 Dronlari videokamera va videouzatgich qurilmasi bilan jihozlangan bo'lishi va ishtirokchi dronni video ko'zoynagi orqali boshqarilishi kerak;

3.2 Agarda ishtirokchini o'zining droni bilan ishtirok etishning iloji bo'lmasa, unda tashkilotchi tomonidan dronlar taqdim etilishi mumkin.

## **HAKAMLAR HAY'ATI**

4.1 Hakamlar hay'ati Tashkiliy Qo'mita tomonidan shakllantiriladi va musobaqa davomida qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi.

4.2 Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.
- Bahsli holatlarda yakuniy qaror qabul qilish.
- Ishtirokchilarning texnik talablarga muvofiqligini baholash.

4.3 Hakamlar qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## **BAHOLASH ME'ZONI VA G'OLIBLARNI TAQDIRLASH**

5.1 Musobaqa ishtirokchilarini baholash mezonini 1-ildovaga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2 Musobaqa komissiyasining namunaviy bayoni 2-ildovaga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3 Ishtirokchilar belgilangan yo'nalish bo'yicha parvozni bittadan amalga oshiradi.

Harakat davomida har bir qoida buzishlar jarima ballar qo'llaniladi:

agarda dron yo'nalishda chiqib ketsa 5 ball olib tashlanadi;

to'siqdan belgilangan shart bo'yicha to'liq o'tmasa 5 ball olib tashlanadi;

to'siqqa tegib o'tsa 3 ball olib tashlanadi;

dron halokatga uchraganda 5 ball olib tashlanadi va parvoz to'xtatiladi.

5.4 G'oliblarni tashkilotchi tomonidan quyidagi tartibda mukofotlanadi:

1- o'rin faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'a;

2- o'rin faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'a;

3- o'rin faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'a.

5.5 G'oliblarni taqdirlashda faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'a jamoa rahbariga topshiriladi.

## **QO'SHIMCHA QOIDALAR**

6.1 Musobaqaning maxsus qoidalarini va reglamentlari rasmiy sayt orqali e'lon qilinadi.

6.2 Tashkiliy Qo'mita musobaqa reglamentlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

6.3 Ushbu nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, Tashkiliy Qo'mitaning qarori ustuvor hisoblanadi.

### **Musobaqa ishtirokchilarini baholash me'zoni**

**Ishtirokchi:** \_\_\_\_\_

| <b>№</b>     | <b>To'siqlar nomlanishi</b>                                             | <b>Ball</b> | <b>Natija</b> |
|--------------|-------------------------------------------------------------------------|-------------|---------------|
| 1.           | 1-to'siq start. To'rtburchak shaklining ichidan uchib o'tish            | 10          |               |
| 2.           | 2-to'siq. Tik turgan bayroqlar orasidan ilonsimon shaklda kesib o'tish  | 15          |               |
| 3.           | 3-to'siq. Arkasimon shaklining ichidan uchib o'tish                     | 10          |               |
| 4.           | 4-to'siq. To'g'ri turtburchak shaklidagi tunelning ichidan uchib o'tish | 10          |               |
| 5.           | 5-to'siq. Qo'sh aylana shaklidagi to'siq ichidan uchib o'tish           | 15          |               |
| 6.           | 6-to'siq. Tik turgan bayroqlar orasidan ilonsimon shaklda kesib o'tish  | 15          |               |
| 7.           | 7-to'siq. Qo'sh aylana shaklidagi to'siq ichidan uchib o'tish           | 15          |               |
| 8.           | 8-to'siq finish. To'rtburchak shaklining ichidan uchib o'tish           | 10          |               |
| 9.           | Jarima ballari                                                          |             |               |
| <b>Jami:</b> |                                                                         | <b>100</b>  |               |

**Komissiya a'zosi**

**Imzo**